

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ФАНЛАР
АКАДЕМИЯСИ МИНТАҚАВИЙ БЎЛИМИ
ХОРАЗМ МАЪМУН АКАДЕМИЯСИ**

**ХОРАЗМ МАЪМУН
АКАДЕМИЯСИ
АХБОРОТНОМАСИ**

Ахборотнома ОАК Раёсатининг 2016-йил 29-декабрдаги 223/4-сон
қарори билан биология, қишлоқ хўжалиги, тарих, иқтисодиёт,
филология ва архитектура фанлари бўйича докторлик
диссертациялари асосий илмий натижаларини чоп этиш тавсия
этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган

**2023-12/5
Вестник Хорезмской академии Маъмуна
Издается с 2006 года**

Хива-2023

Махмудов Ш. Қўқон-Бухоро муносабатларида Жиззахнинг аҳамияти	100
Мўминов У. Қарши шаҳри демографияси	103
Насретдинова Д. Намангандаги маориф ишларини йўлга кўйилиши	105
Орипова Л. Қашқадарё воҳаси адабий мухитининг ривожланиши тарихи	107
Очилов Ф. Ўзбекистонда ногиронлиги бўлган шахсларни ҳимоя қилишга қаратилган давлат ва нодавлат ташкилотларининг фаолияти	110
Серикбаева Ш.Э. Архитектурные сооружения эпохи восточного ренессанса как основа туристической деятельности современного Узбекистана	112
Сулайманова С., Муродов Ш. Илк ўрта асрларда Суғд конфедерацияси бошқарувидаги маҳаллий узвонларнинг ўрни	114
Ташкенбаева Д.А. Обзор развития промышленности в Туркестане в работах зарубежных исследователей XX века	117
Тошибулатов Б. Тибиёт йўналишидаги олий таълим муассасалари тармоғининг кенгайтирилиши ва натижалари	119
Худойқулов И.Б. Қашқадарёда совет даври судларининг ташкил этилишининг тарихий натижалари	121
Эркаева Г.П. Инновационные подходы к развитию человеческого капитала в регионах	124
Кувватова Н. Ўзбекистон қишлоқ хўжалиги иккинчи жаҳон уруши йилларида	126
ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ	
A'zamov S. Axborot-qidiruv tezaurus (mukammal lug‘at)larda va bir tilli lug‘atlarda soha terminologik birliliklarining berilishi	130
Abbozov O.Q. Toponimlar yondosh fanlar obekti sifatida	132
Abulova Z.Z. The essence of ethnolinguocultural consciousness	134
Bafoyeva N.S., Teshaboyeva Z.Q. Buyuk Britaniya va AQSH olyi o‘quv yurtlaridagi tarjimaga oid fanlarning o‘qitilishi	137
Batirkhanova M.O. Somatizmlarning badiiy asardagi qiyosiy tahlili	140
Djalilova Z.B., Ibotova M. Linguistic features of political speech	142
Djalilova Z.B. Ingliz xalq udumlarida gulga oid tushunchalarining badiiy-konseptual ifodasi	144
Djumayeva N., Akhmadova N. The essence of concept in cognitive linguistics	147
Kenjayev T. Fitratning mumtoz adabiyot tarixiga doir asarlari tadqiqi	149
Kosimova M.U. Hujjatlarida otli so‘z birikmalari turlarining ishlatalishi	152
Kurbanova N.R., Anvarova U.J. The syntactical and lexical analysis of the poem “I wandered lonely as a cloud” by William Wordsworth	155
Nekboyeva M.T. Somerset Moem hayoti va ijodi hamda uning teatr sohasiga qo’shgan hissasi	157
Nematjanova D. “Yetti o’lchab bir kes” maqolida 7 raqamining qo’llanilishi xususida	159
Nematova M. Lakuna va kognitiv lingvistika	162
Omonova B.I. The challenges in practical teaching in the field of tesol and specific solutions	164
Ortiqova G.I. Pictorial expression as an object of metaphor	166
Qurbanova N.R., Khamdamova M. “Jeyn Eyr” va “Keng sargasso dengizi” romanlarida tush motivi va uning qahramonlar taqdirida aks etishi	168
Rasulova N.A. Kognitiv tilshunoslikda lisoniy shaxs muammosi	170
Rozikova G.Z. Bog‘langan qo‘shma gaplarda ko‘p ma’nolilik	173
Ribinskaya E.G. A factor affecting competitiveness: the young learner’s development of communicative competence	175
Sadullayev F.B., Qudratullayeva N.T. Tomas Vulfning badiiy tasvir mahorati	177
Sadullayev F.B., Fayzullayeva A.I. Uilyam Folknerning “Dry september” hikoyasida jamiyat va shaxs munosabatlari tasviri	179
Saitov S.Dj. AQSH va o’zbek adabiyotida realistik hikoya taraqqiyoti: adabiy ta’sir va o’ziga xoslik	180
Saitov S.Dj. Humor and irony in the stories of O. Henry and uzbek writers	182
Sulaymonov B. Izoh tipidagi o‘quv lug‘atlar va uning asosiy turlariga doir mulohazalar	184
Suvanova D.K. Exploring taste adjectives and their translation in the uzbek language	187
Tursunov M.M. Media discourse as a modern linguistic object	188
Tukhtayeva F.I. The symbol of china in book of “The house of Earth”	191
Yusufjonova Sh.M. Tilshunoslikda frazeologik birliliklarning o’rganilishi va ularning tasnifi	192
Zakirova Kh.A. Communication through language for special purposes in the example of urban planning terminology	195
Zakirova X.A. Linguistic and cultural characteristics of interpersonal relations in urban discourse	197
Абдулпаттоев М.Т., Шодмонов Х.П. Тилшуносликда конвергенция назарияси масалалари	198

**UILYAM FOLKNERNING “DRY SEPTEMBER” HIKOYASIDA JAMIYAT VA SHAXS
MUNOSABATLARI TASVIRI**

F.B.Sadullayev, PhD, dots., Buxoro davlat universiteti, Buxoro

A.I.Fayzullayeva, magistrant, Turkiston yangi innovatsiyalar universiteti, Buxoro

Annotatsiya. Uilyam Folkner XX asr AQSH modern adabiyotining zabardast vakillaridan biri sifatida nasriy asarlar rivojiga beqiyos hissa qo'shdi. Muallifning nafaqat roman hamda qissalari, balki kichik nasr namunalarida ham davrning ijtimoiy muammolari, irqchilik hamda irqlararo munosabatlar tasviriga keng o'rinn ajratiladi. "Dry September" asari "These 13" hikoyalar to'plamiga kiritilib, yozuvchining modernistik uslubidagi o'ziga xoslikni namoyon etadi. Hikoyada tasvirlangan qahramonlararo munosabatlar tahlili XX asr boshida AQSH jamiyatni va shaxlar o'rtasida mayjud muammolarni yaqqol ifodalab, fikrlar asardan olingan parchalar yordamida izohlanadi.

Kalit so'zlar: Uilyam Folkner, "Dry September", "These 13", hikoya, jamiyat, shaxs, tasvir.

Аннотация. Уильям Фолкнер, как один из ведущих представителей современной американской литературы XX века, внес несравненный вклад в развитие прозаического произведения. Не только в романах и повестей автора, но и в небольших прозаических образцах большое место отведено описанию социальных проблем того времени, расизма и межрасовых отношений. Произведение «Сухой сентябрь» входит в сборник рассказов «Эти 13» и показывает своеобразие модернистского стиля писателя. Анализ отношений героев, описанных в рассказе, ярко выражает проблемы, существующие между обществом США XX века и личности, а идеи поясняются с помощью отрывков из произведения.

Ключевые слова: Уильям Фолкнер, «Сухой сентябрь», «Эти 13», рассказ, общество, личность, описание.

Abstract. William Faulkner, as one of the leading representatives of modern American literature of the 20th century, made an incomparable contribution to the development of prose work. Not only in the author's novels and short novels, but also in small prose samples, a large place is devoted to the description of the social problems of that time, racism and interracial relations. The work "Dry September" is included in the collection of stories "These 13" and shows the originality of the writer's modernist style. The analysis of the relationships of the characters described in the story clearly expresses the problems that exist between XX century US society and individuals, and ideas are explained using excerpts from the work.

Key words: William Faulkner, "Dry September", "These 13", short story, society, individual, description.

XX asr AQSH adabiyotining zabardast vakillaridan biri sifatida adabiyotshunoslar tomonidan tilga olinadigan nosirlardan Uilyam Folkner bo'lib, muallifning hissasi nafaqat romanchilik va qissachilik, balki hikoyachilikda ham beqiyosdir. Yozuvchi birda: "Odam umri boqiyligi shundaki, yengib o'tishiga ko'zi yetmaydigan fojialar bilan to'qnashganda ham u baribir shu ishni uddalashga harakat qilad", deya e'tirof etadi [3]. Haqiqatda, Uilyam Folkner "The Sound and the Fury", "Absalom, Absalom", "As I Lay Dying" singari qissa va romanlarida o'ziga xos uslub orqali inson hamda jamiyatdagi tizginsiz kurashning mukammal tasvirini bera oldi.

Uilyam Folkner nafaqat romanchiligi bilan, balki hikoyachiligi bilan ham bir maktab yarata oldi. Yozuvchining "These 13" (1931), "Go Down, Moses" (1942), and "Knight's Gambit" (1949) singari hikoyalar to'plamiga kirgan asarlar inson tabiatidagi murakkabliklar, Amerika Shimolidagi ijtimoiy muhit, tarixiy voqealarning shaxs va ijtimoiy tuzilmalarga ta'siri mavzulariga bag'ishlandi. Xususan, yozuvchi "These 13" to'plamini turmush o'rtog'i Estel hamda tug'ilib to'qqiz kun yashab bu yorug' olamni tark etgan ilk qiz farzandi Alabamaga bag'ishlab nashr ettiradi. Mazkur hikoyalar to'plamiga "Victory", "Ad Astra", "All the Dead Pilots", "Crevasse", "Red Leaves", "A Rose for Emily", "A Justice", "Hair", "That Evening Sun", "Dry September", "Mistral", "Divorce in Naples", "Carcassonne" asarlari kiritilgan.

"Dry September" ("Quruq Sentabr") hikoyasi ilk marta 1931 yilda Scribner's Magazine jurnalining yanvar oyi nashrida chop etilib, Shimol ayoli (Southern woman) tasviri, uning olamidagi o'ziga xoslik, jamuyatdagi insonlararo murosasiz kurash, irqlaaro muammolar talqiniga bag'ishlanadi. Asarning qahramonlari Uil Mayes, Miss Minni Kuper, MakLendon, Henri Houkshou hamda sartaroshxonasi mijozlari bo'lib, voqealar ayol qahramon atrofida jamylanadi. Adibning ko'plab hikoyalarida ilgari surilganidek, mazkur asarda ham jamiyat va uning a'zolari o'rtasida keskin kurash mahorat bilan qalamga olinadi.

Yozuvchining to‘qima makoni – Jefferson shaharchasida bo‘lib o‘tadigan muammoli vaziyatda qahramonlarning iztiroblari yaqqol ohib beriladi. Hikoya ekspozitsiyasidanoq Uilyam Folkner muhitning tarangligi, bunday muhitda har qanday shaxs to‘yib nafas ola olmasligiga ishora qiladi. “*Through the bloody September twilight, aftermath of sixty-two rainless days, it had gone like a fire in dry grass---the rumor, the story, whatever it was. Something about Miss Minnie Cooper and a Negro*” [5]. “Qonli Sentabr shu’lasi”, (“bloody September twilight”), “quruq maysazorga xuddi olovdek” (“like a fire in a dry grass”) metaforik iboralari bevosita kitobxonga qaltis va chigal vaziyatning olomon orasiga kirib borishi, bu hodisa o‘ta shiddatl bo‘lib, aholi orasida alangaga aylanuvchi kuch bo‘lishi mumkinligi o‘ta mohirlik bilan so‘zda chizib beriladi.

Hikoyaning yana bir epizodida jamiyatning ikki a’zosi o‘rtasidagi kurashga alohida urg‘u beriladi. “*The breathless dark rushed down. There was no sound in it save their lungs as they sought air in the parched dust in which for two months they had lived; then the diminishing crunch of McLendon’s and Butch’s feet, and a moment later McLendon’s voice: “Will! . . . Will!”* [5]. Aybi bo‘lmasa ham, qora tanli bo‘lgani sababli zo‘ravonlikda ayblanayotgan, jamiyatda mish-mishlarning bosh mavzusiga aylangan Uyil hamda Jeffersonagi taniqli shaxs, hikoyaning asosiy antagonist bo‘lib xizmat qiladigan, Uill Mayesdan qasos olish uchun olomonni boshqaradigan oq tanli MakLendonning to‘qnashuvi “nafassiz qorong‘ulik shiddat bilan krib keldi” (“*The breathless dark rushed down*”) gapi bilan boshlab beriladi. Muallif bu bilan har qanday shaxsning bunday jamiyatda ovozi, huquqi, erki cheklanganiga diqqat qaratadi. MakLendon esa shahardagi irqiy ziddiyatlardan o‘z manfaati uchun foydalanadigan shafqatsiz va manipulyativ shaxs sifatida tasvirlanadi.

Xulosa qilib aytganda, Uilyam Folkner o‘z kichik nasriy namunalari bilan shaxs va jamiyat o‘rtasida kechgan murosasiz kurashni tasvirladi. “Dry September” hikoyasi orqali ezentlik va yomonlikning jangi, irqi tufayli kansitish va tazyiqlarga duchor insonlar taqdirini mahorat bilan gavdalantira oldi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Ganieva, O.K. (2020). Depiction of relations between a person and society in american realistic literature. Scientific and Technical Journal of Namangan Institute of Engineering and Technology, 2(8), 215-220.
2. Садулаев, Ф.Б. XX аср ақш модерн адабиётининг тарихий ҳамда ижтимоий негизлари. Scientific reports of Bukhara state university, 171.
3. Xolbekov M. Folkner olami. – “O‘zbekiston adabiyoti va san’ati”, №43, 2011. <https://kh-davron.uz/kutubxona/jahon/uilyam-folkner-quyosh-zavoli-muhammadjon-xolbekov-folkner-olami.html>
4. <https://interestingliterature.com/2022/03/william-faulkner-dry-september-summary-analysis/>
5. https://old.pf.jcu.cz/stru/katedry/aj/doc/sukdolova/William_Faulkner.pdf
6. Sadullaev F. B. The importance of giving feedback in EFL classes //Теория и практика современной науки. – 2018. – №. 11 (41). – С. 404-406.
7. Sadullaev F. B., Kudratova S. O. The benefits of extensive reading programme in language teaching //Мировая наука. – 2019. – №. 2 (23). – С. 48-50.

UO’K 808.5

AQSH VA O’ZBEK ADABIYOTIDA REALISTIK HIKOYA TARAQQIYOTI: ADABIY TA’SIR VA O’ZIGA XOSLIK

S.Dj.Saitov, o’qituvchi, Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti, Denov

Annotatsiya. Ushbu maqolada AQSh va o’zbek adabiyotida realistik hikoyaning rivojlanishi ko’rib chiqiladi va uning tegishli madaniyatlarning o’ziga xosligiga adabiy ta’siri o’rganiladi. Ushbu maqola turli adabiy asarlarni tahlil qilib, realistik hikoya qilish texnikasining rivojlanishidagi o’xshashlik va farqlarni hamda ularning AQSh va O’zbekistonning madaniy va ijtimoiy tuzilishiga ta’sirini yoritishga qaratilgan. Maqolada, shuningdek, ushbu ikki xalqning adabiy o’ziga xosligini shakllantirishda realistik rivoyatning ahamiyati muhokama qilinadi.

Kalit so’zlar: realistik hikoya, AQSh adabiyoti, o’zbek adabiyoti, adabiy ta’sir, madaniy o’ziga xoslik.

Аннотация. В данной статье рассматривается развитие реалистического повествования в американской и узбекской литературе и исследуется его литературное влияние на самобытность соответствующих культур. В данной статье анализируются различные литературные произведения и ставится цель пролить свет на сходства и различия в развитии техник реалистического повествования и их влияние на культурную и социальную структуру США и Узбекистана. В статье также рассматривается значение реалистического повествования в формировании литературного самосознания этих двух народов.